



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI INVESTITSION QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH

DIGITALIZATION OF THE INVESTMENT SUPPORT SYSTEM FOR SMALL BUSINESS ENTITIES IN UZBEKISTAN

¹Nematulloyev
Suxrob Sobirovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Bank ishi" kafedrası dotsenti, PhD.

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini investitsion qo'llab-quvvatlash tizimini raqamlashtirishning zarurati, mexanizmlari va natijalari tahlil qilingan. Raqamli investitsiya monitoringi platformasining joriy etilishi investitsion mablag'lar harakatining shaffofligini ta'minlash, ma'lumotlar asimmetriyasini bartaraf etish, risklarni oldindan baholash hamda kichik biznesning investitsion salohiyatini oshirishdagi rolini chuqur yoritadi. Shuningdek, davlat-bank-biznes o'rtasidagi integratsiyalashgan axborot almashinuvi asosida investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Eng. - This article examines the necessity, mechanisms, and outcomes of digitalizing the investment support system for small business entities in Uzbekistan. The introduction of a Digital Investment Monitoring Platform is analyzed as a key tool for ensuring transparency of investment flows, eliminating information asymmetry, assessing risks in advance, and enhancing the investment potential of small businesses. The paper also discusses theoretical and practical aspects of improving investment efficiency through integrated data exchange among the state, commercial banks, and businesses.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ raqamli iqtisodiyot, investitsiya monitoringi, kichik biznes, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, blokcheyn, ma'lumotlar asimmetriyasi, investitsiya risklari, raqamli platforma.

❖ digital economy, investment monitoring, small business, financial support, blockchain, information asymmetry, investment risks, digital platform.

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, barcha tarmoqlarda, xususan, bank-moliya sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsiyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyatini kengaytirish va investitsiya

faoliyatida shaffoflikni ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Kichik biznes milliy iqtisodiyotning asosiy drayveri, yalpi ichki mahsulotning muhim manbai hamda yangi ish o'rinlari yaratuvchi sektor sifatida iqtisodiy barqarorlikda katta o'rin tutadi.

Biroq amaldagi investitsion qo'llab-quvvatlash tizimi to'liq raqamlashtirilmaganligi sababli investitsiya

mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish, investitsiya loyihalarini real vaqt rejimida monitoring qilish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash jarayonlarida bir qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, ma'lumotlarning qog'ozbozlikka asoslangan shaklda yuritilishi, axborotlar asimmetriyasi, investitsion loyihalarning bajarilishini baholashdagi kechikishlar, moliyaviy risklarni oldindan aniqlashdagi kamchiliklar investitsiya muhitining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan, kichik biznesga yo'naltiriladigan investitsion resurslarni boshqarish va nazorat qilish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida shakllanmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, investitsiya jarayonlarini raqamli platformalar orqali boshqarish iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, sarmoyadorlar ishonchini oshiradi hamda davlat va biznes o'rtasida samarali axborot almashinuvi muhitini yaratadi (OECD, 2023; World Bank, 2022).

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillarda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Prezidentning 2020–2023-yillardagi PF-6079 [1], PQ-4996-sonli qarorlarida raqamli transformatsiya, investitsiya jarayonlarini avtomatlashtirish, davlat xizmatlari va bank tizimini raqamlashtirish vazifalari belgilangan.

Xalqaro amaliyotda kichik biznes investitsiyalarini monitoring qilish bo'yicha Jahon banki, OECD, EBRD hamda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan taklif qilingan "digital monitoring", "data-driven supervision" va "smart investment management" modellari qo'llanib kelinadi. OECD (2023) hisobotlariga ko'ra, kichik biznes investitsiyalarini raqamli nazorat qilish iqtisodiy o'sishni 1,4–1,7 foizga

tezlashtirishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda [2] investitsiya monitoringida blokcheyn asosidagi shaffoflik, Big Data tahlili va raqamli risk baholashning ustunliklari chuqur asoslab berilgan.

Demak, O'zbekiston sharoitida tijorat banklari tomonidan yagona "Raqamli investitsiya monitoringi platformasi"ni joriy etish xalqaro tendensiyalar va milliy rivojlanish strategiyasiga mos keladi. Shu bois ushbu tadqiqot kichik biznes subyektlarini investitsion qo'llab-quvvatlash tizimini raqamlashtirishning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va kutilayotgan iqtisodiy natijalarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda shakllanayotgan yangi raqamli ekotizimning ilmiy asoslarini yoritib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishda analitik taqqoslash, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslama tahlil ma'lumotlarni guruhlash, ularni bir-biri bilan solishtirish yo'li bilan statistik qayta ishlash usuli, miqdor va sifat ko'rsatkichlar hisoblash kabi uslublardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, bank-moliya tizimi faoliyatini avtomatlashtirish, shaffoflikni ta'minlash hamda investitsion faoliyatni takomillashtirish yo'nalishida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarini investitsion qo'llab-quvvatlash tizimini raqamlashtirish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda [3]. Shu munosabat bilan tijorat banklari tomonidan "Raqamli investitsiya monitoringi platformasi"ni joriy etish investitsion jarayonlarni boshqarishning zamonaviy bosqichi sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur platforma nafaqat loyihalarning bajarilish dinamikasini real vaqt rejimida

kuzatish, balki ularning moliyaviy intizomi, resurslardan foydalanish darajasi va kutilayotgan iqtisodiy samaradorligini aniq baholash imkonini beradi. Platforma orqali kredit mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan shaffof nazorat o'rnatiladi, loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi tezlashadi, risklarni oldindan aniqlash va ularni boshqarish mexanizmlari takomillashadi. Natijada moliyalashtirish jarayonlarining ochiqligi kuchayadi, investitsion qarorlar qabul qilish sifati oshadi va tijorat banklarining portfel strategiyasi yanada samarali shakllanadi. Shu tariqa, raqamli monitoring platformasi kichik biznes va investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashning muhim nazariy-amaliy vositasiga aylanadi.

O'zbekistonda kichik biznes faoliyatiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni nazorat qilish va samaradorligini baholash jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud. Birinchi navbatda, investitsiya mablag'larining sarflanishi ustidan shaffof monitoringning yetarli emasligi jiddiy muammo hisoblanadi. Banklar va davlat organlariga taqdim qilinayotgan hisobotlar ko'pincha qog'ozbozlikka asoslangan bo'lib, haqiqiy natijalarni aniqlashda qiyinchilik tug'diradi.

Ikkinchi muammo - ma'lumotlar asimmetriyasi va ma'lumotlarni yig'ishdagi samarasizlik. Kichik biznes subyektlari investitsiya mablag'laridan qanday foydalanayotgani haqidagi ma'lumotlar parchalangan holda mavjud va yagona elektron maydon shakllanmagan. Bu holat investitsiyaning qay darajada iqtisodiy va ijtimoiy samara berganini aniq baholashni qiyinlashtiradi.

Uchinchi jihat - investitsiya samaradorligini baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga tayanib qolish. Hozirgi amaliyotda yaratilgan ish o'rinlari, ijtimoiy ta'sir yoki mahalliy resurslardan foydalanish darajasi yetarli hisobga olinmayapti.

To'rtinchi muammo - xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun ishonch muhitining pastligi. Investitsiya mablag'larining maqsadli yo'naltirilishi va ularning natijalari bo'yicha aniq axborot yo'qligi sarmoyadorlarning faolligini cheklab qo'yimoqda. Ushbu platforma orqali investitsiya jarayonlarini real-time kuzatish, samaradorlikni aniq baholash va resurslar taqsimotini optimallashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Raqamli investitsiya monitoringi platformasi - bu tijorat banklari, davlat moliya institutlari va kichik biznes subyektlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi, moliyaviy nazorat va tahliliy jarayonlarni yagona raqamli muhitda amalga oshirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan axborot tizimidir. Uning nazariy mohiyati raqamli iqtisodiyot, moliyaviy inklyuziya va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) konsepsiyalariga tayanadi.

Ushbu platformaning ishlash tamoyillari quyidagilardan iborat:

❖ Axborot asimmetriyasini bartaraf etish - bank, davlat va biznes o'rtasida to'liq ma'lumot almashinuvi orqali investitsion qarorlarning aniqligini oshiradi;

❖ Real vaqt rejimida monitoring - moliyalashtirilgan loyihalarning bajarilishi, resurslarning sarflanishi va iqtisodiy natijalari onlayn tarzda kuzatiladi;


❖ Risklarni oldindan baholash - katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalari asosida kredit va investitsiya risklari avtomatik aniqlanadi;

❖ Shaffoflik va ishonchni ta'minlash - barcha operatsiyalar blokcheyn texnologiyasi asosida qayd etiladi, bu esa korrupsion xavflarni kamaytiradi.

Nazariy jihatdan ushbu model "raqamli moliyaviy ekotizim" konsepsiyasiga tayanadi. Ushbu konsepsiya moliya bozoridagi barcha ishtirokchilarning - tijorat banklari, davlat institutlari, investorlar, kredit tashkilotlari hamda kichik biznes subyektlarining - yagona raqamli axborot maydonida o'zaro

integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishini nazarda tutadi. Bunday yagona platforma orqali ma'lumotlar almashinuvi, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonlari, investitsion resurslarni taqsimlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari avtomatlashtiriladi. Natijada moliyaviy oqimlar ustidan shaffof nazorat o'rnatiladi, investitsion mablag'larning manzilli yetkazilishi ta'minlanadi, korxonalarining moliyaviy holati

va loyihaviy risklar real vaqt rejimida baholanadi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi va moliyalashtirish mexanizmlarining umumiy samaradorligini oshiradi. Raqamli moliyaviy ekotizimning shakllanishi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada barqaror, ochiq va innovatsion yo'nalishga yo'naltiradi.



1-rasm. “Davlat-bank-biznes” raqamli investitsiya monitoringi mexanizmi¹

“Davlat-bank-biznes” raqamli investitsiya monitoringi mexanizmi investitsiya jarayonlarini yagona raqamli platforma orqali birlashtiradi va ularni real vaqt rejimida kuzatish imkonini yaratadi. Bu mexanizm davlat, tijorat banklari va kichik biznes o‘rtasidagi ma'lumot almashinuvi, nazorat va tahlil jarayonlarini avtomatlashtirib,

investitsiyalarning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlaydi.

Mexanizm quyidagi natijalarni beradi:

1. Shaffoflik va hisobdorlik. Kredit, subsidiya va investitsiya mablag'larining qanday sarflanayotgani to'liq raqamli monitoring ostida bo'ladi. Mablag'larning “yo'qolishi” yoki maqsadsiz ishlatilishi deyarli imkonsiz bo'ladi.

¹Muallif ishlanmasi.

2. Real vaqt tahlili va tezkor qaror qabul qilish. (ML) investitsion loyihalarning samaradorligi, risklari va iqtisodiy natijalarini bir zumda baholab beradi. Davlat va banklar kredit berish, imtiyoz ajratish yoki risklarni kamaytirish bo'yicha tezkor qaror qabul qiladi.

3. Kreditlarning maqsadli sarfini nazorat qilish. Har bir kredit qadam-baqadam raqamli tarzda kuzatiladi. Mablag'lar faqat tasdiqlangan loyiha ehtiyojlariga ishlatiladi.

4. Kichik biznes faoliyatining aniq bahosi. Platforma kichik biznesning foydasi, ishlab chiqarish hajmi, eksporti va bandlik ko'rsatkichlarini avtomatik tahlil qilib beradi. Bu ularning kredit qobiliyatini oshiradi.

5. Risklarning keskin kamayishi. Blokcheyn asosida monitoring kreditlarning qaytmaslik ehtimolini pasaytiradi, bank portfeli sifatini yaxshilaydi va davlat kafolatlari bo'yicha yo'qotishlarni minimallashtiradi.

6. Davlat siyosatining aniq rejalashtirilishi. Hududlar kesimidagi investitsiya oqimlari, bandlik, ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlari bir joyda ko'rinadi. Natijada davlat investitsiya, subsidiya va soliq imtiyozlarini aniq maqsadga yo'naltira oladi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes investitsiyalarini samarali boshqarish va nazorat qilishda "Raqamli investitsiya monitoringi platformasi"ni joriy etish bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizim banklar, davlat va biznes o'rtasida uzluksiz axborot almashuvini ta'minlaydi, moliyalashtirish jarayonlarini shaffoflashtiradi va investitsiya resurslarining

qaytaruvini kafolatlaydi. Natijada, kichik biznes subyektlarining innovatsion salohiyati kengayadi, iqtisodiyotda investitsion faollik ortadi hamda O'zbekistonning moliyaviy tizimi xalqaro standartlarga mos raqamli ekotizim asosida rivojlanadi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini investitsion qo'llab-quvvatlash tizimini raqamlashtirish iqtisodiy o'sish, moliyaviy inklyuziya va investitsiya resurslaridan samarali foydalanish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqadi. "Raqamli investitsiya monitoringi platformasi"ning joriy etilishi:

❖ investitsion mablag'lar harakatini to'liq shaffoflashtiradi;

❖ ma'lumotlar asimmetriyasini kamaytiradi va qaror qabul qilish sifatini oshiradi;

❖ kredit va investitsiya risklarini avtomatik baholaydi;

❖ kichik biznesning kreditga layoqatini real ko'rsatkichlar asosida aniqlaydi;

❖ davlat siyosatini hududiy va tarmoq kesimida aniq rejalashtirish imkonini yaratadi;

❖ investitsiya jarayonlarida korrupsiya xavflarini minimallashtiradi.

Natijada kichik biznesning investitsion faolligi ortadi, iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratiladi, resurslar samaradorligi oshadi va O'zbekistonning bank-moliya sektori xalqaro standartlarga mos raqamli ekotizimga transformatsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmoni.

2. Corredera-Catalán, A., Rodríguez, F., & Martínez, P. (2021). Digital Investment Monitoring and Financial Transparency in SMEs: A Data-Driven Approach. *Journal of Small Business Management*.

3. Nematulloyev S.S. (2022). Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlari. *Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali*.